

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM)


(joriy narxlarda, mlrd. so'm)

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning hajmi joriy narxlarda 24 937,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,9 %ga o'sdi. Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi 2023- yil yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 112,0 %ni tashkil qildi.


Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sofsoliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajmi va deflyator indeksi dinamikasi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da).

2023- yil yanvar-mart




2024- yil yanvar-mart



**2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM
o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**


YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,5 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,0 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,4 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdı.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,0 f.p.)ga ko'paydi.



**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 13,1 %), sanoatda – 106,2 % (50,2 %), qurilishda – 111,3 % (6,3 %), xizmatlar sohasida – 108,6 % ni (30,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,9 % (7,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,1 % (5,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,3 % dan (17,0 %) iborat bo'ldi.



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8152,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

**2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi
(ming so‘mda)**



**2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**



Ma’lumot uchun: Respublika bo‘yicha 2024- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi **6 580,6** ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davrriga nisbatan **4,0 %**ga o‘sdi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda **5 584,9** ming so‘mni va **103,4 %**ni tashkil qilgan.


**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi
va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)**

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 10 743,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 9 193,7 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 45,2 %ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 45,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.



**Kichik biznesning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi
(yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan)**




**2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM
ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

| | <i>mldr. so‘m</i> | | <i>Fizik hajm indeksi, %da</i> |
|--|----------------------------------|----------------------------------|------------------------------------|
| | <i>2023- yil yanvar-mart</i> | <i>2024- yil yanvar-mart</i> | |
| I.Yalpi hududiy mahsulot - jami | 20 834,3 | 24 937,3 | 106,9 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 20 037,7 | 23 769,8 | 106,8 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 796,6 | 1 167,5 | 107,4 |
| II.Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 20 037,7 | 23 769,8 | 106,8 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2 792,0 | 3 115,0 | 103,5 |
| Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) | 11 395,3 | 13 440,2 | 106,8 |
| sanoat | 10 160,7 | 11 931,5 | 106,2 |
| qurilish | 1 234,6 | 1 508,7 | 111,3 |
| Xizmatlar | 5 850,4 | 7 214,6 | 108,6 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 499,0 | 1 814,5 | 110,9 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari | 1 102,2 | 1 368,5 | 112,1 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 3 249,2 | 4 031,6 | 106,3 |

2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,3 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,7 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 13,1 %ni, sanoat tarmog'i 50,2 %ni, qurilish 6,3 %ni va xizmatlar sohasi 30,4 %ni tashkil qildi.

**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha
YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan %da)**

| | <i>2023- yil yanvar-mart</i> | <i>2024- yil yanvar-mart</i> |
|--|----------------------------------|----------------------------------|
| I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati | 96,2 | 95,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 3,8 | 4,7 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
| qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 13,9 | 13,1 |
| sanoat (qurilishni qo‘sghan holda) | 56,9 | 56,5 |
| sanoat | 50,7 | 50,2 |
| qurilish | 6,2 | 6,3 |
| xizmatlar | 29,2 | 30,4 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 7,5 | 7,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,5 | 5,8 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 16,2 | 17,0 |

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 110,6 % va xizmatlar sohasida – 113,6 % qayd etildi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



Ma'lumot uchun: Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida YAIM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 113,3 foizni tashkil etdi. YAIM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 119,1 % va xizmatlar sohasida – 115,7 % qayd etildi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo‘shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o‘sish sur’ati) doimiy narxlarda, ya’ni o‘tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.